



**QADIMGI XORAZM HUDUDIDA TOPILGAN MUNCHOQLAR:
ARXEOLOGIK TADQIQOT VA MADANIY AHAMIYATI**

Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

Elektron pochta:mgulnoz@bk.ru

Annotatsiya: [Abstract]: Ushbu maqolada qadimgi Xorazm hududida arxeologik qazishmalar natijasida topilgan munchoqlar tahlil qilinadi. Jonbosqal'a va Tuproqqal'a yodgorliklaridagi munchoqlarning shakl, rang va materiallari haqida ma'lumot beriladi. Munchoqlarning madaniy va savdo aloqalaridagi o'rni, ishlab chiqarish texnologiyasi hamda ularning qadimiy Xorazm madaniyatidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari Xorazmning tarixiy savdo tarmoqlari va madaniy integratsiyasini tushunishda muhim manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar [Keywords]: Qadimgi Xorazm, munchoqlar, arxeologiya, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, madaniy meros, shisha munchoqlar, savdo aloqalari.

Kirish. Qadimgi Xorazm o'zining boy madaniy merosi, tarixiy yodgorliklari va arxeologik topilmalari bilan Markaziy Osiyoda muhim ilmiy ahamiyatga ega hududlardan biridir. Ushbu maqolada Xorazmning qadimiy yodgorliklarida, ayniqsa Jonbosqal'a va Tuproqqal'a kabi markaziy joylarda topilgan munchoqlar tahlil qilinadi. Munchoqlar nafaqat qadimiy bezak buyumlari, balki o'sha davr savdo, madaniy aloqalar va ijtimoiy tuzilmaning qimmatli ko'rsatkichlaridir. Shu bois ularni o'rganish, qadimgi Xorazmning global savdo yo'llari va madaniy integratsiyasini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review): Qadimgi Xorazm hududida arxeologik qazishmalar davomida topilgan munchoqlar va ularning madaniy, iqtisodiy ahamiyati haqida bir qancha ilmiy tadqiqotlar mavjud. Ilk muhim manba sifatida I.V. Ptashnikovaning (1952) "Busi drevnego i rannesrednevekovogo Khorezma" asari e'tiborga loyiqdir. Unda Jonbosqal'a va boshqa qadimiy yodgorliklardan topilgan munchoqlar tahlil qilinib, ularning shakllari, materiali va ranglari batafsil ko'rsatilgan. Ptashnikova munchoqlarni turli madaniyatlar va savdo yo'llari orasidagi bog'liqliklarni aniqlashda muhim tarixiy material sifatida baholaydi[1].

S.V. Kiselev (1951) esa janubiy Sibirdagi qadimiy munchoqlarni o'rganib, ularning turlarini va texnologiyalarini taqqoslab, ularning qadimgi savdo tarmoqlaridagi o'rnini aniqlashga uringan. Kiselevning tadqiqotlari Xorazm munchoqlari bilan ko'plab o'xshashliklarni ko'rsatadi, bu esa madaniyatlararo aloqalarning mavjudligini tasdiqlaydi[2]. S.P. Tolstovning "Drevniy Khorezm" (1948) asari Xorazm arxeologiyasining asosiy manbalaridan biri bo'lib, u yerda munchoqlarning topilgan joylari, ularning turlari va saqlanish sharoitlari haqida ma'lumotlar berilgan[3]. Tolstov ishida Jonbosqal'a topilmalari va ularning datirovkasi haqida to'liq ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularning qadimiy savdo





yo'llarida muhim rol o'ynaganligi ta'kidlangan. Shuningdek, S.A. Trudnovskoy (1952) tomonidan Tuproqqal'a yodgorligidan olingan munchoqlar haqida yozilgan maqolalar ham muhimdir. Trudnovskoyning tadqiqotlari munchoqlarning antik davr madaniyatlari bilan bog'liqligini va ularning texnologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan[4]. Bundan tashqari, boshqa geografik hududlardagi arxeologik topilmalar, jumladan Olviya, Keriya, Kiriya, va Kavkaz yodgorliklaridagi munchoqlar bilan taqqoslashlar Xorazm munchoqlarining keng xalqaro aloqalar doirasida bo'lganligini ko'rsatadi [5]. Yuqoridagi tadqiqotlar munchoqlarning qadimgi Xorazmdagi tarixi, madaniy ahamiyati va ishlab chiqarish texnologiyasi haqida keng va chuqur tasavvur beradi. Shu bilan birga, hozirgi kunda bu mavzu bo'yicha yanada ko'proq tadqiqotlar olib borilishi zarurati ham aniq ko'rinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Ushbu tadqiqotda qadimgi Xorazm hududida arxeologik qazishmalardan topilgan munchoqlarni o'rganish uchun sifatli tahliliy yondashuv qo'llanildi. Asosiy ma'lumotlar I.V. Ptashnikovaning 1952-yilda chop etilgan "Busi drevnego i rannesrednevekovogo Khorezma" asaridan, shuningdek, S.P. Tolstov, S.V. Kiselev va S.A. Trudnovskoy kabi olimlarning tadqiqotlari hamda arxiv materiallaridan olinmoqda. Materiallar sifatida Jonbosqal'a va Tuproqqal'a yodgorliklaridan olingan munchoqlar namunalaridan foydalanildi. Munchoqlar shakli, materiali, ranglari va ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha taqqoslashlar amalga oshirildi. Shuningdek, munchoqlarning madaniy va savdo aloqalaridagi o'rni, tarixi va geografiyasi o'rganildi. Tadqiqotda taqqoslash usuli muhim ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi Xorazm munchoqlari boshqa hududlardagi (Janubiy Sibir, Kavkaz, Olviya va boshqalar) topilmalar bilan solishtirildi. Bu orqali madaniy va iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, arxeologik qazishmalar natijalarini tarixiy manbalar bilan taqqoslash asosida munchoqlarning datirovkasi amalga oshirildi. Ushbu yondashuv tadqiqotning ilmiy ishonchliligini ta'minlashga yordam berdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results) Qadimgi Xorazm hududidan topilgan munchoqlar tahlili ko'plab madaniy va tarixiy xulosalarni chiqarishga imkon berdi. Asosiy ma'lumotlar Jonbosqal'a, Tuproqqal'a va boshqa yodgorliklardan olingan namunalar asosida amalga oshirildi. Munchoqlarning materiali asosan shisha, gagat va temirdan yasalganligi aniqlanib, ularning rang va shakllari xilma-xil bo'lib, qadimgi savdo yo'llarining kengligini ko'rsatadi. Shisha munchoqlar orasida eng ko'p uchraydiganlar qoramtir ko'k, yashil va ko'p rangli turlari bo'lib, ular miloddan avvalgi III asrdan milodning II asrigacha bo'lgan davrga taalluqlidir. Jonbosqal'adan topilgan munchoqlar ko'pincha sharsimon, silindrik va amfora shaklidagi bo'lib, ular asosan antik davrning boshqa hududlarida, jumladan, Qrim, Kavkaz va Janubiy Sibirdagi topilmalar bilan o'xshashlik ko'rsatadi. Bu esa Xorazmning qadimgi savdo va madaniy aloqalarda faol ishtirok etganligini ko'rsatadi. Pirit va gagatdan yasalgan munchoqlar esa asosan bezak uchun ishlatilgan va ularning metall yaltirashi qadimgi odamlar orasida juda qadrlangan. Pirit munchoqlarning ustida ikki teshikning bo'lishi, ehtimol ular ikki qatlamli marjonlar uchun ishlatilganligini ko'rsatadi. Tuproqqal'a yodgorligidan topilgan munchoqlar esa o'zining noyobligi bilan ajralib turadi. Ular orasida oltin qoplamali va ichki



bezakli turlari uchraydi, bu esa qadimgi Xorazmda metallga ishlov berish va bezak san'atining rivojlanganligini ko'rsatadi. Umuman olganda, topilgan munchoqlar qadimgi Xorazmning keng tarmoqdagi savdo va madaniy aloqalar markazi ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ular Xorazm hududining iqtisodiy hayoti, hunarmandchiligi va estetik didi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Arxeologik qazishmalarda topilgan munchoqlar qadimgi davrda turli xalqaro savdo aloqalarining ko'prigi bo'lganini tasdiqlaydi. Munchoqlar qadimdan turli xalqlarda nafaqat zargarlik buyumi, balki ba'zan mayda pul birligi sifatida ham xizmat qilgan. Xorazmda topilgan munchoqlar shakl va materiali jihatidan keng xilma-xillikka ega bo'lib, bu hududning qadimdan savdo yo'llari tarmog'ida faol ishtirok etganligini ko'rsatadi. Ularning mavjudligi savdo va madaniy aloqalarning sinxronligini aniqlashda, shuningdek, madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganishda asosiy manba hisoblanadi.

Jonbosqal'a yodgorligida topilgan munchoqlar Jonbasqal'a (miloddan avvalgi IV asr – milodiy I asr) qadimgi Xorazmning eng qadimiy va tadqiq qilingan yodgorliklaridan biridir. 1939-yilda o'tkazilgan qazishmalar natijasida ushbu qal'adan jami 82 dona turli shakldagi munchoqlar topilgan. Ularning ko'pchiligi shisha bo'lib, turli shakl va ranglarda, ayniqsa qoramtir ko'k rangdagi shishalar ustunlik qiladi. Bu munchoqlar orasida shuningdek piritdan, gagat va temirdan yasalganlari ham mavjud bo'lib, ularning shakllari va ishlatilish uslublari Xorazm hududining savdo va madaniy aloqalarini ko'rsatadi. Masalan, piritdan yasalgan munchoqlarda ikki teshik bo'lib, ular ko'pincha ikki qatlam munchoqlarni bog'lashda ishlatilgan. Shishadan yasalgan munchoqlarning ko'pchiligi doira, oval va prizmatik shaklga ega bo'lib, bu ularning funksional va estetik jihatlari haqida tushuncha beradi.

Tuproqqal'a yodgorligidagi munchoqlar Tuproqqal'a (milodiy III–VI asrlar) Xorazmning yirik arxeologik majmuasidir. Bu yerdagi qazishmalarda topilgan munchoqlar oldingilariga qaraganda rang-barang va murakkabroq bo'lib, ular orasida ko'k, yashil, sariq va boshqa rangdagi shisha munchoqlar uchraydi. Bu munchoqlar nafaqat bezak sifatida, balki ijtimoiy status va madaniy o'ziga xoslikni ifodalash vositasi bo'lgan. Tuproqqal'a munchoqlari shakl va uslub bo'yicha milodiy davrning savdo yo'llari tarmog'ida keng tarqalgan o'lka madaniyatlarining umumiyliigi va farqliligini aks ettiradi. Qadimgi Xorazmda munchoqlar ko'pincha shishadan tayyorlangan. Shishaning rangini o'zgartirish uchun temir oksididan (ko'k va yashil ranglar uchun) va mis oksididan (yashil rang) foydalanilgan. Shishaning yuqori sifatli bo'lishi va rang-barangligi, ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, piritdan va gagatdan yasalgan munchoqlar ham topilgan bo'lib, ular tabiiy kristall shaklida ishlatilgan. Munchoqlarni yasashda shuningdek oltin folga bilan bezash texnologiyasi qo'llanilgan, bu esa qadimgi Xorazm hunarmandlarining texnik saviyasini ko'rsatadi. Munchoqlar qadimiy Xorazmda xalqaro savdo va madaniy aloqalarning muhim vositasi bo'lgan. Ayniqsa, Jonbosqal'a va Tuproqqal'a yodgorliklarida topilgan munchoqlar boshqa hududlardagi, jumladan Qrim, Kavkaz va Janubiy Sibir hududlaridan topilgan munchoqlarga o'xshashligi, Xorazmning savdo tarmog'idagi o'rnini ko'rsatadi. Shuningdek, munchoqlarning turli shakl va ranglari, Xorazmning ijtimoiy qatlamlaridagi tafovut va madaniy o'ziga xoslikni anglatadi.





Xulosa Qadimgi Xorazm hududidan topilgan munchoqlar madaniy meros va arxeologik manba sifatida juda muhimdir. Ular Xorazmning qadimiy savdo yo'llarida faol ishtirok etgani, madaniyatlar o'rtasida aloqalar mavjudligi va hunarmandchilikning yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ushbu munchoqlar orqali qadimgi Xorazmning tarixiy va madaniy rivojlanishini chuqurroq anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пташникова И.В. Бусы Дреннего и раннесредневекового Хорезма. Труды Хорезмской экспедиции, т.1, 1952. 105-110.
2. Киселева С.В. Древняя история южной Сибири. М.И.А., N 9. 1951.
3. Толстов, С.П Древний Хорезм. Москва.1948.
4. Трудновская, С.А. Украшения позднеантичного Хорезма по материалам раскопок Топрак-Калъа. Труды Хорезмской экспедиции 1952
5. "Ellinisticheskaya tehnika", pod red. akademika I.I. Tolstogo. Moskva.1948.